



**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA FAKULTETI**

**Ro'yxatga olindi**

**“TASDIQLAYMAN”  
Akademik ishlar bo'yicha prorektor  
M.Amonboev**

**№ \_\_\_\_\_**

\_\_\_\_\_

**«\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 yil**

**«\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 yil**

**70110201 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)  
mutaxassisligi talabalarining stajirovkasini tashkil etish**

**DASTURI**

**Toshkent – 2025**

## «TAVSIYA ETILDI»

Psixologiya va maktabgacha ta'lim  
kafedrası mudiri dots. N.Lutfullayeva

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 y.

Dastur Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasining 2024-yil 28-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va undan foydalanish bo'yicha Universitet kengashi muhokamasiga tavsiya etilgan.

### **Tuzuvchilar:**

- 1.N.Lutfullaeva – XNU Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.
2. Arapbaeva – XNU Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

### **Taqrizchilar:**

1. D.Miralieva – XNU Pedagogika kafedrası dotsenti, PhD.
2. D.Chorieva – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim psixologiya va pedagogikasi kafedrası dotsenti, PhD.

## MUNDARIJA

### Kirish

- I. Umumiy qoidalar
  - 1.1 Stajirovkaning maqsadi va vazifalari
  - 1.2 Stajirovka davrida talabaniing majburiyatlari
  - 1.3 Stajirovka tashkil etiladigan obyektlar tomonidan tayinlanadigan rahbar vazifalari
- II. Stajirovkani o'tuvchi talaba ish joyi va vaqt fondini taqsimlash
- III. Stajirovka jarayonida ko'riladigan masalalarning mazmuni
- IV. Talabaniing magistrlik dissertatsiya ishi
- V. Stajirovka yakunlari haqida talabaniing hisoboti va uni himoya qilishi
- VI. Stajirovka hisobotini himoyasi bo'yicha baholash mezonlari  
Ilovalar

## KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarida yangicha xo‘jalik yuritish sharoitlarida ishlash qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari oldiga tub iqtisodiy islohotlar talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish vazifalarini qo‘ydi. Bunda ta‘limdagi nazariy va amaliy masalalarni hal etish zaruriyatidan hamda o‘quv jarayonlarini takomillashtirishdan kelib chiqqan holda barcha turdagi ishlab chiqarish va stajirovkalar amaliy jihatdan mukammal tashkil etilmog‘i lozim.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha talabalarni tayyorlashda yuqori darajadagi siyosiy-iqtisodiy ta‘limni bozor iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyoti borasidagi chuqur bilimlar, milliy xo‘jalik tarmoqlarida xo‘jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishning aniq yo‘nalishlari, texnika va texnologiya sohasidagi keng dunyoqarash bilan uyg‘un birlashtirishni ta‘minlash zarur.

Fanlar bo‘yicha bilimlar majmuasini o‘zlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uzviyligida malaka hamda ko‘nikmalarni mukammal shakllantirishda stajirovkaning o‘rni beqiyos.

Magistratura mutaxassisligi ikkinchi bosqich talabalarining stajirovkaini to‘g‘ri tashkil qilish bo‘lajak yosh mutaxassislarni real ishlab chiqarish sharoitlariga, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Stajirovkani o‘tkazish bo‘yicha tartib O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ–637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2012 yil 24 iyuldagi PF–4456-son hamda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 10-sentabrdagi 190-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 2015 yil 2 martdagi 36-son “Magistratura to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlariga asosan tasdiqlangan.

Ushbu dastur oliy ta‘lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish sharoitida magistratura mutaxassisligi uchun stajirovkani tashkil etishning asosi hisoblanadi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalari talabalarining stajirovkai to‘g‘risidagi Namunaviy nizom va namunaviy o‘quv rejalari asosida ishlab chiqilgan. Binobarin, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish amaliyoti muammoni nazariy jihatdan o‘rganish, birlamchi ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, magistrlik dissertatsiyasini bajarish va himoya qilish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi kerak.

***Talaba quyidagilarni bilishi va qo'llay olishi zarur:***

- ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy tushunchalarini;
- tadqiqot usullarini – abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez;
- magistratura mutaxassisligi bo'yicha obyektlar va jarayonlarni tadqiq qilishning namunaviy modellari va metodikalarini;
- tajriba tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash usullarini;
- ilmiy va texnik yechimlarga ilmiy-iqtisodiy va boshqa talablarni.

***Talaba quyidagi ko'nikmalarga va tajribaga ega bo'lishi kerak:***

- magistratura mutaxassisligi bo'yicha tadqiqot metodikasiga nisbatan namunaviy modellarni qo'llash;
- ijtimoiy-pedagogik, psixologik va tashkiliy jarayonlarning rivojlanishini bashorat qilish va ularning natijalarini tahlil qilish usullarini qo'llash;
- masalaning qidiruv izlanishlarini o'tkazish va uning holatini tahlil qilish;
- ilmiy yechimlar variantlarini optimallashtirish hamda xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish.;

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti talabalarning sifatli nazariy va amaliy tayyorgarligini ta'minlashga; muammolarni hal qilish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni, kelgusi mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan mutaxassislik bo'yicha amaliy bilimlar, o'quvlar va ko'nikmalarni shakllantirishda ilmiy usullardan foydalanishga yordam berishi, hayotiy sharoitlarda vujudga keluvchi aniq muammolarni hal qilishda mustaqil ilmiy asoslangan qarorlarni qabul qilish uquvlarini shakllantirishi kerak.

## UMUMIY QOIDALAR

### 1.1 STAJIROVKANING MAQSADI VA VAZIFALARI

Stajirovka talabalarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartiga, xususan o'quv rejaga muvofiq tarzda tashkil etiladi va u ta'lim jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitida amalga oshiriladigan tarkibiy qismi hisoblanadi.

Stajirovkaning asosiy maqsadi – bitiruvchi bosqich talabalarni Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq mustaqil ishlashga o'rgatish, o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, jamoada tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borishga tayyorlash hamda magistrlik dissertatsiya ishini bajarish uchun materiallar to'plash hisoblanadi.

Talaba aqliy salohiyatga, fundamental ilmiy negizga ega bo'lishi, ilmiy ijodkorlik metodologiyasini zamonaviy axborot texnologiyalarini, ilmiy axborotni olish, qayta ishlash va saqlash usullarini egallagan bo'lishi, ilmiy-tadqiqot, ilmiy-amaliy, ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyor bo'lishi kerak.

Stajirovkadan kutiladigan natija hamda uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bitiruvchi bosqich talabalari o'z mutaxassisligi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- tashkilotda o'z mutaxassisligi bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamini va tizimini o'rganish;
- amaliyot obyekti va boshqa subyektlar o'rtasidagi hujjatlar aylanishini o'rganish;
- amaliyot obyektida mavjud tartib qoidalar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish;
- amaliyot obyekti bo'yicha qaror qabul qilish va mustaqil ishlashga o'rganish;
- amaliyot obyekti va umumiy tarmoq darajasida ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlardan xabardor qilish;
- ijtimoiy-siyosiy, tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish sohasida kerakli bilimlar bilan ta'minlash;
- mamlakatimizda ijtimoiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan yaqindan tanishish;
- magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy maqolalar va kelgusida ilmiy izlanishlar uchun zarur bo'ladigan amaliy ma'lumotlarni to'plash;
- tahliliy ma'lumotlar va nazariy bilimlar asosida tegishli tashkilotni kelgusida rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va hokazolar.

## **1.2. STAJIROVKA DAVRIDA TALABANING MAJBURIYATLARI**

Stajirovka obyekti bo'lib talaba faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari hisoblanadi.

Stajirovka dasturlariga mos holda amaliyotni o'tayotgan talaba maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'z yo'nalishi bo'yicha mutaxassisi sifatida ish o'rganadi. Stajirovka davrida talaba amaliyot o'tish joyi tomonidan belgilangan rahbarlari bilan hamkorlikda ish rejalarini tuzadilar va bu reja o'z ifodasini berilgan dasturda topishi lozim.

Bajariladigan ishlar muddati va bosqichlari to'g'ridan-to'g'ri amaliyot joyi rahbari tomonidan belgilanadi.

Magistratura talabasi birinchi semestrni (ikkinchi kurs) muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng, stajirovka o'tashga yuboriladi. Stajirovka rejalashtirilayotganda uning yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishiga ikki oy qolgunga qadar yakunlanishi hisobga olinishi lozim.

Stajirovka davomida har shanba kunlari talaba hafta davomida tanishgan hisobotlar, olingan ma'lumotlar, qilingan ishlar bo'yicha ilmiy rahbarga yozma ravishda axborot beradi.

Stajirovkaning birinchi kuniyoq talaba belgilangan tartib qoidalar bilan tanishib chiqishi va o'z vazifalarini anglab olishi kerak. Talabaning ish joyidagi majbutiyatlari u egallab turgan lavozim mohiyati va boshqaruv-idoraviy tartibdan kelib chiqadigan talablar bilan belgilanadi.

Stajirovkani o'tuvchi talaba obyekt sharoitlaridan kelib chiqqan holda, tashkilot rahbarining buyrug'i bilan lavozimga tayinlanishi mumkin. Buning uchun oliy o'quv yurti tomonidan biriktirilgan rahbaridan ijozat olinishi shart. Ammo shtat lavozimida ishlash ushbu amaliyot dasturida ko'zlangan topshiriqlarni bajarishga salbiy ta'sir etmasligi lozim.

Stajirovkani o'tash jaryonida talabalar ushbu hujjatda va shaxsiy ilmiy-tekshirish ish dasturida va rejasida ko'zlangan topshiriqlarni to'la bajarishlari, amaliyot rahbari ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishlari va ichki tartib qoidalari talablariga qat'iy rioya qilishlari kerak.

Stajirovka dasturini bajarmagan va ish joyidan salbiy tavsiyanoma olgan yoki amaliyot haqidagi hisobotni himoya qilish natijasida qoniqarsiz baho olgan talabalar qaytadan keying o'qv yilida amaliyotni o'tash uchun yuboriladi. Mazkur masala yuzasidan universitet rektoriga ma'lumot taqdim qilinadi.

## **1.3. KAFEDRA VA STAJIROVKA TASHKIL ETILADIGAN OBYEKT RAHBARINING VAZIFALARI**

### **1.3.1. Universitetdan stajirovka rahbari (ilmiy rahbar yoki maslahatchi):**

magistratura talabalarini stajirovka o'tash joylariga taqsimlashda ishtirok etadi;  
magistratura talabasining stajirovkasiga umumiy rahbarlik qiladi;

stajirovka o'tash uchun ketayotgan magistratura talabasiga zarur yo'l-yo'riqlar beradi;

magistratura talabasining stajirovka o'tash joyiga yetib borishi va qaytishini nazorat qiladi;

qabul qiluvchi tashkilotdan biriktirilgan mas'ul (stajirovka rahbari) bilan stajirovka o'tash holati bo'yicha muntazam aloqada bo'ladi;

talabaga stajirovka o'tash dasturini bajarish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatadi;

zarur hollarda, stajirovka o'tash joylariga borish orqali stajirovka o'tash tartibiga magistratura talabasi tomonidan rioya qilinishini, stajirovka o'tash dasturi bajarilishini nazorat qiladi;

stajirovkaga bormayotgan talabalar yoki ularning stajirovkasida muammolari bor holatlar haqida dekanat va kafedra mudirini ogohlantirib boradi;

stajirovka o'tashni takomillashtirish yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

### **1.3.2. Qabul qiluvchi tashkilot rahbari:**

stajirovkani tashkil etish bo'yicha buyruq (qaror) qabul qiladi;

malakali va tajribali mutaxassislar orasidan stajirovka rahbarini tayinlaydi;

magistratura talabasiga stajirovka o'tash dasturiga muvofiq stajirovka o'tash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

### **1.3.3. Qabul qiluvchi tashkilotdan stajirovka rahbari:**

tashkilotda magistratura talabasining stajirovkasiga umumiy rahbarlik qiladi;

magistratura talabasiga zarur yo'l-yo'riqlar va tushuntirishlar beradi;

talabani tashkilot obyektlarining tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

stajirovka o'tash dasturiga taalluqli zarur materiallardan foydalanishini ta'minlaydi;

stajirovka o'tash dasturida nazarda tutilgan masalalar bo'yicha zarur maslahatlar beradi;

magistratura talabasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va stajirovka kundaligining yuritilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi;

stajirovka kundaligining tegishli qismlarini imzolaydi. Imzo qabul qiluvchi tashkilot muhri (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlanadi;

universitetdagi stajirovka rahbari yoki universitet rahbariyatini magistratura talabasining stajirovka o'tash uchun kelmayotganligi yoki u tomonidan stajirovka o'tash dasturi bajarilmayotganligi yoxud mehnat intizomi buzilayotganligi haqida xabardor qiladi;

## **II. AMALIYOTNI O'TUVCHI TALABA ISH JOYI, STAJIROVKA O'TASH BOSQICHLARI VA VAQT FONDINI TAQSIMLASHI**

Stajirovkaini II kurs Magistratura mutaxassisligi talabalari ta'lim muassasalari – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida, maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmasida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'taydilar.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha stajirovka o'quv rejasiga muvofiq 8 hafta ajratilgan. Stajirovkaning uzluksiz davomiyligi 3 (uch) oydan oshmasligi kerak. Stajirovka o'tashning kunlik davomiyligi 6 (olti) soatni tashkil etadi.

Talaba amaliyot joyiga kelishi bilanoq, stajirovka tashkil etiladigan obyekt rahbari uni amaliyotga qo'yish haqida buyruq tayyorlab, unga tegishli xodimlardan rahbar



tayinlaydi.

Stajirovka o'tash quyidagi bosqichlarga bo'linadi:  
tayyorlov bosqichi (stajirovka o'tashning birinchi kuni);  
asosiy bosqich;  
yakuniy bosqich (stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi).

Stajirovka o'tashning tayyorlov bosqichida — talaba tegishli mehnatni muhofaza qilish qoidalari, ichki mehnat tartibi qoidalari, tashkilotda stajirovka o'tashning talab va shartlari, tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalari, faoliyat yo'nalishlari bilan tanishtiriladi. Stajirovka o'tash dasturiga muvofiq tegishli ko'rsatmalar beriladi. Mazkur bosqichda talabaning stajirovka o'tash dasturini bajarish bo'yicha reja-jadval (kalendar reja) tuziladi.

Stajirovka o'tashning asosiy bosqichida — magistratura talabasi tomonidan stajirovka o'tash dasturini bajarish bo'yicha reja-jadvalda (kalendar rejada) nazarda tutilgan ishlar bajariladi.

Stajirovka o'tashning yakuniy bosqichida — magistratura talabasi tomonidan stajirovka o'tash davrida (jarayonida) amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari ko'rib chiqiladi, tahlil qilinadi hamda baholanadi.

Stajirovkani o'tash yakka reja (grafik) asosida amalga oshiriladi. Uni amaliyot rahbari har qaysi talaba bilan birgalikda amaliyot dasturiga muvofiq ravishda stajirovka o'tayotgan joyning xususiyatlarini hisobga olib tuzib chiqadi. Namunaviy grafik chizmasi quyida keltirilgan.

### **III. STAJIROVKA JARAYONIDA KO'RILADIGAN MASALALARNING MAZMUNI**

#### **3.1. Stajirovka obyektlarida amaliyotni tashkil qilish muddati va mazmuni**

Stajirovka kafedrada belgilangan amaliyot rahbari tomonidan ishlab chiqilgan, kafedra mudiri tasdiqlagan kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi. Amaliyot rahbari har bir amaliyotga chiquvchi magistrga va u borayotgan amaliyot obyektiga individual tarzda yondashishi zarur. Shuningdek, "Magistrlarning kalendar ish rejasi" aniq, maqsadli va natijaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

<b>Haftalar</b>	<b>Stajirovka davrida bajariladigan ishlarning mazmuni</b>
1-hafta	<ul style="list-style-type: none"><li>• Stajirovka joyiga yetib kelish.</li><li>• Tanishuv ishlari (tashkilot rahbari va amaliyot rahbari bilan tanishuv).</li><li>• Ishlar rejasini tuzish va tasdiqlash.</li><li>• Magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga mos ravishda tadqiq etilayotgan muammoning nazariy asoslarini o'rganish.</li><li>• 1-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li></ul>
2-hafta	<ul style="list-style-type: none"><li>• Maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy tavsifi va tashkiliy tuzilmasini tuzish.</li></ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tadqiqot usullari va muammoni hal qilishga yondashuvlarning tahlili.</li> <li>• 2-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li> </ul>
3-hafta	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasi sharoitida muammoning o'rganilganlik darajasining tahlili.</li> <li>• Magistrlik dissertatsiyasini yozish uchun ilmiy va statistik ma'lumotlarni to'plash.</li> <li>• 3-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li> </ul>
4-hafta	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Magistrlik dissertatsiyasini yozish uchun ilmiy va statistik ma'lumotlarni to'plash.</li> <li>• 4-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li> </ul>
5-hafta	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Magistrlik dissertatsiyasini yozish uchun ilmiy va statistik ma'lumotlarni to'plash.</li> <li>• Ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish.</li> <li>• 5-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li> </ul>
6-hafta	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tadqiqot muammosi bo'yicha statistik va pedagogik tahlil.</li> <li>• 6-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li> </ul>
7-hafta	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish.</li> <li>• 7-mavzu (kafedradagi ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatiladi).</li> </ul>
8-hafta	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bajarilgan topshiriqlar va amaliyot joyida olingan ma'lumotlar asosida hisobot tayyorlash;</li> <li>• Hisobotni yozish va rasmiylashtirish;</li> <li>• Ishlab chiqarishdan biriktirilgan amaliyot rahbaridan tavsiyanoma olish;</li> <li>• Hisobotning himoyasi.</li> </ul>

### **1 - Mavzu: Amaliyot obyektining ichki tizim tarkibi**

Stajirovka obyektining vujudga kelish tarixi va unda o'rnatilgan tartib qoidalar bilan tanishish va ularni o'rganish. Ish yuritish mexanizmini o'rganish. Obyektning ichki tizim tarkibi ish faoliyatlari bilan tanishish. Amaliyot obyektining rahbar va uslubchi ish faoliyatlari bilan tanishish. Biriktirilgan amaliyot rahbari ish faoliyati bilan tanishish va o'rganish. Biriktirilgan guruh bilan tanishish.

#### ***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

<b>№</b>	<b><i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i></b>	<b><i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.</i></b>
1.	Rahbar va xodim, uslubchi bilan uchrashuv. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori va xodimlari bilan uchrashuv.	Amaliyot objekti ichki tarkib tuzilmasining chizmasini ishlab chiqish (1-ilova).
2.	Ish yuritish mexanizmini o'rganish. Ichki qonun - qoidalar bilan tanishish.	Amaliyot obyektining ichki nizomlari va qonun – qoidalarini o'rganish.

3.	Biriktirilgan amaliyot rahbari ish faoliyati va guruh a'zolari bilan tanishish.	Guruh tarbiyalanuvchilari bilan amaliyot rahbari va guruh tarbiyachisi hamkorligida suhbat o'tkazish hamda tarbiyalanuvchi shaxsini pedagogik, fiziologik va rivojlanish xaritasi bo'yicha ma'lumotlar jadvalini o'rganish va to'ldirish (2-ilova).
----	---	---

## 2 - Mavzu: Ta'lim va tarbiya berish jarayonining o'quv-uslubiy ishlari

Pedagogik jarayonda amaliyot obyektining uslubchisining ish faoliyati bilan tanishish. Mutaxassislik bo'yicha uslubiy pedagogik kengash faoliyati bilan tanishish. Amaliyot obyektining o'quv-uslubiy, pedagogik ish rejalari, (o'quv dastur, ishchi dastur) va mavjud uslubiy qo'llanmalar bilan tanishish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish va tahlil qilish; maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va xodimlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha faoliyatini o'rganish.

Kutubxonada sohaga oid bo'lgan adabiyotlar bilan tanishish va tahlil qilish. Dissertatsiyani tayyorlash va yozishning asosiy bosqichlaridan biri ilmiy adabiyotlar bilan tanishish. Bunda asosiy nazariy ishlarni (monografiyalar, ilmiy to'plamlardagi maqolalar va h.k.) ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda o'rganish lozim.

### *Mavzu bo'yicha topshiriqlar*

№	<i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i>	<i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i>
1.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti va tarbiyachining ish faoliyati va uning vazifalari bilan tanishish, o'rganish tahlil qilish.	O'quv reja va dasturlar bilan tanishish, MTT faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari o'rganish va tahlil qilish.
2.	Mutaxassislik bo'yicha uslubiy pedagogik kengash faoliyati bilan tanishish.	Uslubiy pedagogik kengashda qatnashish, uning faoliyatini o'rganish.
3.	Kutubxonadagi sohaga oid mavjud adabiyotlarni o'rganish.	Adabiyotlar tahlilini o'tkazish.

## 3 - Mavzu: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkiloti va xodimlari faoliyati bilan tanishish

Stajirovka obyektining ma'naviy-ma'rifiy ish rejalari, maktabgacha ta'lim tashkiloti ish xujjatlari va mavjud uslubiy qo'llanmalari bilan tanishish. Ma'naviy va ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etish. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti va uni rejalashtirish yo'llarini o'rganish.

Turli yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini pedagogik-psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi pedagogik-psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy, jismoniy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy va ijobiy o'zgarishlari kuzatib o'rganish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatini samarali va sifatli tashkil

etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar yo'nalish berish va qo'llab-quvvatlash. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishni bilish. Pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning pedagogik va psixologik madaniyatini yuksaltirish.

#### ***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

№	<i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i>	<i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i>
1.	Tarbiyaviy ishlari yuzasidan o'quv me'yoriy hujjatlar bilan tanishish.	Tarbiyaviy ish rejasini o'rganish.
2.	Tarbiyaviy tadbirlar rejalashtirilishi va o'tkazilishi bilan tanishish	Tarbiyaviy tadbirlar rejalarini va o'tkazilishini o'rganish.
3.	Maktabgacha ta'lim tashkilotida turli yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini pedagogik-psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi pedagogik - psixologik nuqsonlarni aniqlash	Maktabgacha ta'lim tashkilotida turli yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini pedagogik-psixologik tahlil qilish, ta'lim-tarbiyadagi pedagogik-psixologik nuqsonlarni aniqlash, tuzatish ishlarini amalga oshirish.
4.	Tarbiyalanuvchilarning ota-onalar bilan ishlashni yo'llarini kuzatish va o'rganish	Ochiq eshiklar kunini o'tkazishni rejalashtirish yo'llarini, tarbiyachi va ota-onalar doimiy suhbatlashish, va ota-onalarning valantyorlik ishlarini tashkil etishni o'rganish

#### **4 - Mavzu: Ta'lim berishni tashkillashtirish yo'llari**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari (ananaviy mashg'ulotlar, noananaviy mashg'ulotlar, markazlardagi mashg'ulotlar) olib borilishini kuzatish va o'rganish. Ta'lim berish shakllari (individual, guruhli, ommaviy, individual - juftlik) shakllarda mashg'ulot o'tkazilishini kuzatish va o'rganish. Mashg'ulotga qo'yilgan talablar bilan tanishish. An'anaviy va no'anaviy mashg'ulotlarni tashkil etish va markazlarda ishlash yo'llari va uslublari. Amaliyot obyektida innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat (ta'limda innovatsiya, o'quv jarayonida pedagogik texnologiya, tarbiyachi faoliyatida innovatsiya, o'quv - tarbiya jarayonida innovatsiyalar) bilan tanishish va o'rganish. Markazlarda ish faoliyati tashkil etish, mashg'ulot o'tish usullari va shakllarining pedagogik jihatlari, mashg'ulotni tashkillashtirishning pedagogik asoslari. Mashg'ulotni boshqarish va

nazorat qilishning pedagogik usullari.

***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

<b>№</b>	<b><i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i></b>	<b><i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i></b>
1.	Ta'lim berishni tashkil etish shakllarini o'rganish.	Markazlarda ishlash va mashg'ulotlarni tavsifiy xususiyatlarini aniqlash ularni jadvalga kiritish (3-ilova).
2.	Markazlarda mashg'ulot tashkil etish turlari bilan tanishish va o'rganish.	Markazlarda mashg'ulot turlariga tavsif berish. Mashg'ulotning pedagogik asoslarini o'rganish. Mashg'ulotni tashkil etishning pedagogik usullarini tahlil qilish.
3.	An'anaviy va noan'anaviy mashg'ulotlar bilan tanishish.	An'anaviy va noan'anaviy mashg'ulotlarni qiyosiy tomonlarini o'rganish va ularni jadvalga kiritish (4-ilova).

**5 - Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat dasturini tahlil qilish**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi bilan tanishish. Maktabgacha ta'lim tashkilotida dasturining ishlash sifati va samaradorligini tahlil qilish. Ta'lim-tarbiya jarayoning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil qilish.

***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

<b>№</b>	<b><i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i></b>	<b><i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i></b>
1.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi bilan tanishish.	Davlat ta'lim standarti va davlat dasturini o'rganish va shu asosida markazlarda ish faoliyatini tashkil etish
2.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini kuzatish va o'rganish.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati jarayonini tahlil qilish va natijalarni jadvalga kiritish. Pedagogik baho berish (5-ilova).
3.	Ta'lim natijalarini tekshirish va baholash bilan tanishish.	Tarbiyalanuvchilarni rivojlanish va kichik sohalari bo'yicha baholash natijalar tahlili (6- ilova).

**6 - Mavzu: MTT rivojlantirish markazlarida faoliyatni olib borish uchun maxsus yo'riqnoma ishlab chiqish. Mashg'ulotlarni rivojlantirish markazlarida o'qitish usullaridan samarali foydalanish**

Stajirovka obyektida rivojlantirish markazlari uchun mustaqil ravishda ishlab chiqilgan yo'riqnomaning dastur bilan mosligini asoslash. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va tarbiyachisi sifatida davlat o'quv dasturi bo'yicha kutilayotgan ta'limiy natijalarni tahlil qilish, uslubiy yo'riqnoma bilan ishlashni va dastur asosida ishni tashkil etishni o'rganish.

### ***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

<b>№</b>	<b><i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i></b>	<b><i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i></b>
1.	O'quv – me'yoriy hujjatlarni tayyorlash.	Rivojlantirish markazlarida ishlash uchun yo'riqnoma ishlab chiqish (7-ilova).
2.	O'quv – uslubiy vositalarni tayyorlash.	Rivojlantirish markazlarida ishlash uchun mashg'ulot ishlanmasi, tarqatma materiallarni ishlab chiqish va tahlil qilish.
3.	O'quv-ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash.	Plakat, mashg'ulotga doir maxsus ko'rgazmali qurollar.

### **7 - Mavzu: Ilmiy ish mavzusiga xos ma'lumotlarni to'plash**

Magistr amaliyotda o'z ilmiy tadqiqot mavzusi yuzasidan qanday birlamchi va asosiy ma'lumotlarni olish mumkinligini aniqlash, mavzu bo'yicha statistik hisobotlar bilan, yo'riqnomalar va boshqa metodologik ishlanmalar bilan tanishish, soha mutaxassislar tomonidan yozilgan analitik yozuvlarni chuqur o'rganish. Dissertatsiya yozish jarayonida magistr svodka tuzishni, guruhlashni amalga oshirish, jadval tuzish, har xil statistik usullar qo'llash imkoniyati.

O'rganilayotgan vaqt oralig'ini aniqlash, o'rganilayotgan hodisaning dinamikada rivojlanishini o'rganish, hodisaning hozirgi holatini bilish bilan birga, uning tarixiy rivojini bir necha yillar bo'yicha ham (eng kami 3 yil) o'rganilish.

### ***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

<b>№</b>	<b><i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i></b>	<b><i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i></b>
1.	Statistik ma'lumotlar bilan qayta ishlash bo'yicha materiallar bilan tanishish.	Statistik ma'lumotlar bilan qayta ishlash yo'llarini o'rganish.
2.	Ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha rivojlantirish markazlariga oid yo'riqnoma tayyorlash.	Ilmiy-tadqiqot mavzusiga oid tayyorlangan yo'riqnomani tahrirlash va chop etish
3.	Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish	Sinov guruhi tarbiyachilarini tajriba-sinov mashg'ulotlarining mazmun va mohiyati bilan tanishtirish va amalga oshirish.
4.	Magistrlik ishi mavzusi bo'yicha materiallarni yig'ish.	Magistrlik ishi mavzusi bo'yicha materiallarni tahlil qilish (8-ilova).

### **8-mavzu. Stajirovka jarayonida to'plangan ma'lumotlar asosida hisobotini tayyorlash**

Ilmiy rahbar bilan hamkorlikda ishchi jadvallarni tuzish, (ma'lumotnoma jadvallari, obzor jadvallari va maxsus analitik jadvallar), uni amaliyot rahbariga havola etilish.

Magistrlik ishi mavzusi bo'yicha materiallarni (kirish, amaliyot o'tilayotgan

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarixi, amaliyot o'tilayotgan tashkilotning ichki tarkib tuzilmasi, birlashtirilgan guruh haqida ma'lumot, mashg'ulot o'tishda foydalanilgan metodlar, mashg'ulot o'tish jarayonini tahlil qilish, mashg'ulot o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, ilmiy tadqiqot uchun mo'ljallangan tadqiqot natijalarini) tizimlashtirish va hisobot ko'rishida rasmiylashtirish (9-ilova)).

### ***Mavzu bo'yicha topshiriqlar***

№	<i>Stajirovka obyektida bajariladigan topshiriqlar</i>	<i>Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar</i>
1.	Kirish, stajirovka o'tilayotgan MTTning tarixi, ichki tarkib tuzilmasini tayyorlash.	Kirish, stajirovka o'tilayotgan MTTning tarixi, ichki tarkib tuzilmasini ishlab chiqish.
2.	Birlashtirilgan guruh haqida ma'lumotlar yig'ish.	Birlashtirilgan guruh haqida ma'lumotlar yig'ish.
3.	Mustaqil o'tkazilgan mashg'ulotlar va markazlarda ishlash yo'riqnomasini rasmiylashtirishga tayyorlash.	Mustaqil o'tkazilgan mashg'ulotlar va markazlarda ishlash yo'riqnomasini tartibga keltirish.

## **IV. TALABANING MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHI**

Stajirovkani o'tash vaqtida har bir talaba magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha MD tayyorlash uchun kerakli ma'lumotlarni to'playdi. MDni stajirovka o'tash davrida olgan amaliy materiallardan foydalanib tahliliy qismini tayyorlaydi.

### **MD bo'yicha talaba uchun shaxsiy topshiriqlar**

Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish maqsadida ularni kafedra ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilishi lozim. Buning uchun amaliyot o'tuvchi talaba zimmasiga quyidagi vazifalarni bajarish yuklanadi:

- ko'p yillik dinamika qatorlarini hosil qilish uchun MD mavzusiga doir barcha kerakli ma'lumotlarni to'plash;
- to'plangan haqiqiy ma'lumotlarni vaqt va boshqa belgilari bo'yicha taqqoslamaligini aniqlash;
- barcha kerakli ko'rsatkichlarni tuzish uslubini ishlab chiqish, ularni haqiqiy materiallar asosida hisoblash hamda chuqur tahlil qilish.

Talaba mamlakat ta'lim tizimining muhim masalalariga yozma tahlilnomalarni shakllantirishda, ma'ruzalarni tayyorlashda faol ishtirok etishi kerak.

## **V. STAJIROVKA YAKUNLARI HAQIDA TALABALARNING STAJIROVKA HUJJATLARINI RASMIYLASHTIRISH**

Stajirovka o'tash jarayonida magistratura talabasi tomonidan stajirovka kundaligi yuritiladi.

Stajirovka o'tash davrida amalga oshirilgan ishlar stajirovka dasturiga muvofiq stajirovka kundaligiga yozib boriladi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan birlashtirilgan

stajirovka rahbari tomonidan imzolanadi.

Kundalik daftari:

a) ehtiyotkorlik bilan o'z vaqtida va imlo xatolarisiz to'ldirilishi zarur;

b) qo'lyzma tartibida to'ldirilishi lozim;

c) amaliyot kundaligi oxirgi betlarida stajirovka o'tgan joydagi mas'ul yoki rahbarning umumiy xulosasi, imzo va muhr bilan tasdiqlanishi shart. Kundaligi bo'lmagan hisobot himoya uchun qabul qilinmaydi.

Magistratura talabasi stajirovka o'tab bo'lgandan so'ng, stajirovka bo'yicha yozma (ilmiy maqola yoki taqdimot) ravishda hisobot tayyorlaydi.

Stajirovka yakunlari bo'yicha hisobotda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

- stajirovka muddati, stajirovka o'talgan tashkilotning umumiy faoliyati;

- stajirovka dasturida ko'rsatilgan vazifa-topshiriqlarning bajarilganlik holati va tasdiqlovchi hujjatlar haqidagi ma'lumotlar;

- stajirovka xorijsida o'talgan bo'lsa, xorijsida o'talgan stajirovka bo'yicha xulosalar aks etgan ma'lumotlar;

- stajirovka bo'yicha hisobotning ilmiy konfrensiyalarda ma'ruza qilinganligi, ilmiy nashrlarda chop etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar, agar mavjud bo'lsa;

- magistrlik dissertatsiyasi (dissertatsiyaning rejalashtirilgan qismi) bo'yicha amalga oshirilgan tajriba sinovlari yoki tadqiqot ishlari natijalari haqidagi ma'lumotlar;

- sohani takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan asosli ilmiy-amaliy takliflar;

- stajirovka o'tash bo'yicha boshqa muhim masalalar (*10- ilova*).

## **VI. STAJIROVKA BO'YICHA HISOBOT HIMOYASI**

Stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi stajirovka yakunlangandan so'ng, bir oy ichida universitetda tashkil etiladi.

Universitet tashabbusi bilan yuborilganda stajirovka natijalari bo'yicha magistratura talabasi tomonidan stajirovka yakunlangan kundan e'tiboran 3 kun ichida universitet buxgalteriyasiga stajirovka davomida qilingan maqsadli xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar (borish-kelish yo'l xarajatlari chiptalari, turar joy (mehmonxona) to'lovlari kvitansiyalari va boshqa hujjatlar) ilova qilingan holda xarajatlar haqida hisobot taqdim etiladi.

Magistratura talabasi universitetda stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi o'tkazilgunga qadar stajirovka bo'yicha hisobotni dastlab mutaxassislik kafedراسi yig'ilishida himoya qiladi. Himoya yakunlari bo'yicha mutaxassislik kafedراسi tomonidan yozma ravishda xulosa beriladi.

Magistratura talabasi stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi o'tkazilishidan kamida 5 kun oldin universitetdagi stajirovka rahbariga stajirovka yakuni bo'yicha quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- stajirovka bo'yicha hisobot (to'plangan materiallar yig'ma jildi);

- stajirovka kundaligi;

To'plangan materiallar yig'majildi stajirovka bo'yicha baho qo'yilgandan so'ng, kelgusida o'quv va amaliy faoliyatda foydalanish uchun magistratura talabasiga qaytarib beriladi.

Stajirovka rahbari taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib, stajirovka kundaligida



stajirovka o'tash natijalarini xulosa tarzida bayon etadi va imzolaydi.

Stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi universitetning malakali va tajribali pedagog xodimlaridan iborat tarkibda tuzilgan komissiya tomonidan universitetda o'tkaziladi.

Stajirovka bo'yicha hisobot himoyasida qabul qiluvchi tashkilot vakili ishtirok etishi mumkin. Magistratura talabasi xorijda stajirovka o'tagan bo'lsa universitetning xalqaro aloqalar departamenti xodimi stajirovka bo'yicha hisobot himoyasida ishtirok etishi shart.

Stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi stajirovka bo'yicha rahbarlar xulosalarini o'qib eshittirishidan boshlanadi.

Stajirovka rahbarlari xulosalari o'qib eshittirilgandan so'ng, magistratura talabasining stajirovka bo'yicha xulosasi, stajirovka davomida to'plagan materiallari, shuningdek stajirovkaga oid taklif va mulohazalari tinglanib, komissiya tomonidan muhokama qilinadi.

Stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi quyidagi mezonlariga asosan baholanadi:

- magistratura talabasining nazariy va amaliy bilimlari darajasi;
- magistratura talabasi tomonidan stajirovka davomida to'plangan materiallarning tuzilishi darajasi va sifati hamda stajirovka o'tash davomida o'rganilgan masalalarning yoritib berilishi;
- bildirilgan takliflarning asosliligi va amaliy ahamiyati.

Stajirovka bo'yicha hisobot himoyasi natijalari 100 ballik tizimda baholanadi va shu kunning o'zida magistratura talabasiga e'lon qilinadi.

Stajirovka bo'yicha qo'yilgan ball fanlar bo'yicha qo'yiladigan ballarga tenglashtiriladi va umumiy o'zlashtirish yakunlarini (GPA) chiqarishda inobatga olinadi.

Stajirovka yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho qo'yilganda, magistratura talabasi stajirovka bo'yicha hisobotni bir oy ichida mazkur Nizomda belgilangan tartibda qayta himoya qilish huquqiga ega.

Stajirovka bo'yicha hisobotni qayta himoya qilish yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho qo'yilganda, shuningdek stajirovka uzrli sabablarsiz o'talmaganda magistratura talabasi akademik qarzdor deb hisoblanadi.

## **VII. STAJIROVKA HISOBOTINI HIMOYASI BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI**


<b>№</b>	<b>Mezon ko'rsatkichlari</b>	<b>Ballar oralig'i</b>
1.	Stajirovka kundaligining to'g'ri va mazmunli to'ldirilganligi	<b>3 balgacha</b>
2.	Stajirovka obyektini rahbariyati tomonidan talabaning stajirovkai yuzasidan ijobiy tavsifnomaning mavjudligi	<b>5 balgacha</b>
3.	Stajirovka dasturiga kiritilgan mavzularning nazariy jihatdan yoritilganligi	<b>15 balgacha</b>
5.	Stajirovka dasturiga kiritilgan mavzularning amaliy jihatdan yoritilganligi va qilingan tahlillarning ilmiylik darajasi	<b>20 balgacha</b>

6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, Farmonlari, Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlardan samarali foydalanganlik darajasi	<b>12 balgacha</b>
7.	Taqdimot jarayonida talabning malakaviy hisobotini mazmun mohiyatini yoritib berish darajasi	<b>20 balgacha</b>
8.	Himoya jarayonida hay'at a'zolari tomonidan berilgan savollarga javobning to'liqligi va to'g'riligi darajasi	<b>15 balgacha</b>
9.	Ilmiy rahbar tomonidan taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklarni tuzatganligi darajasi	<b>5 balgacha</b>
10.	Stajirovka hisobotining chiroyli, ravon yozilganligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi	<b>5 balgacha</b>
<b>Jami:</b>		<b>100</b>

## ILOVALAR

1 – ilova

### Amaliyot obyektining ichki tarkib tuzilmasi



2 – ilova

### Trabiyalanuvchi shaxsini o'rganish

№	Tarbiyalanuvchining ismi sharifi	Bilish jarayonlari	fiziologik holatlari	Rivojlanish xaritasi bo'yicha baholash (KBTD)
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				
9.				
10.				

3-ilova

### Markazlarda mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari

Markaz turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Nutq va til	

markazi	
Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi	
- Ilm-fan va tabiat markazi	...
San'at markazi	
Oldindan ko'zlangan xatoliklar bilan	
Ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni dagi natijalar tahlili (inklyuziv ta'lim).	
Tavsiyalar	

4 – ilova

### **An'anaviy ta'limni zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limdan farqi**

<b>An'anaviy ta'lim berish</b>	<b>Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim berish</b>
<b>1. Konseptual asoslar</b>	
<b>2. Tarbiyanuvchining tutgan o'rni va vazifasi</b>	
<b>3. Tarbiyachining tutgan o'rni va vazifasi</b>	
<b>4. Ta'lim va tarbiya berish va o'rganish usullari</b>	

<b>5. Ta'lim va tarbiya berish vositalari</b>	
<b>6. Ta'lim va tarbiya berishni tashkillashtirish shakllari</b>	

*5 – ilova*

**Davlat dasturi asosida MTT faoliyatiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat tavsifi**

<b>Pedagogik faoliyat</b>	<b>Izoh</b>
Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat	
O'quv –tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar	

*6-ilova*

**Tarbiyalanuvchilarni rivojlanish va kichik sohalari bo'yicha baholash natijalar tahlili**

<b>Ta'lim natijalarini baholash yo'nalishlari</b>	<b>Ta'lim natijalarini baholash</b>	<b>Kutilayotgan natijalar</b>
Kommunikativ		
Ijtimoiy		
Shaxsiy		
Bilish		

*7-ilova*

**Rivojlantirish markazlarida faoliyatni tashkil etish uchun ishlab chikilgan yo'riqnomaning tavsifi**

<b>Yo'riqnoma tavsifi</b>	<b>Tarbiyachining faoliyati</b>	<b>Tarbiyalanuvchining faoliyati</b>

Hisobotning tarkibiy qismlari.

(*namunaviy*)

I. Titul varag‘i

II. Kirish

*1. Amaliyot o‘tilayotgan muassasa tarixi*

*2. Amaliyot o‘tilayotgan obyekt strukturasi*

*3. Ma‘naviy - ma‘rifiy ishlarni tashkil etilishi va murabbiylik faoliyati haqida ma‘lumot*

*4. Mashg‘ulotda o‘tishda foydalanilgan metodlar va pedagogik texnologiyalar*

*5. Mashg‘ulot o‘tish jarayonini tahlil qilish*

*6. Mustaqil shakllantirilgan rivojlantirish markazlari uchun yo‘riqnoma tavsifi*

*7. Ilmiy ish mazusiga oid o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarini tahlili.*

III. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ilovalar



## XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Magistratura fakulteti

Psixologiya va maktabgacha  
ta'lim  
kafedrası

Ro'yxatga olish № \_\_\_\_\_  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 y.

Ro'yxatga olish № \_\_\_\_\_  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 y.

### STAJIROVKA BO'YICHA HISOBOT

\_\_\_\_\_  
(maktabgacah ta'lim tashkiloti nomi)

Bajardi: \_\_\_\_\_/imzo/  
(kurs, guruhi, F.I.Sh.)

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh., imzo)

Amaliyot bo'yicha umumiy bahosi: \_\_\_\_\_ Sana: « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 y.

Komissiya raisi \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.) imzo

Komissiya a'zolari: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.) imzo

Komissiya a'zolari: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.) imzo

Toshkent - 2025